

KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA (O'QUVCHILARGA) XORIJIY TILLARNI INTERFAOL USULLARDA O'RGATISH METODIKASI

Po'latova Zulayho Qobil qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti 2 fakulteti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda ingliz tili yo'nalishi

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Zubaydova N.N.

Annotatsiya: Bugungi kunda ko'pgina insonlarda o'z ona tilini bilishdan tashqari boshqa bir nechta xorijiy tillarni bilish ham kerak bo'lmoqda. Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, chet tillarini o'rganish jarayonini erta boshlash samaraliroq ekanligi aniqlanmoqda. Shu jumladan, O'zbekistonda ham bu masalaga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ingliz tilini o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish samaraliroq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Metodlarning samaradorligi, ilmiy metodlar, interfaol metodlar.

Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning eng sevimli mashg'uloti o'yin hisoblangani tufayli bola o'zini o'rab turgan atrofni o'yinlar orqali bilib olmoqda. Shu sababli, xorijiy tillarni interfaol usullarda va turli xil qiziqarli o'yinlarga chambarchas holda o'rgatilsa, bolalardagi til ko'nikmalarining o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. Turli xil qiziqarli o'yinlar bolalarni nafaqat jismoniy faolligini balki, aqliy faolligini oshirishga imkon beradi. Misol uchun: "So'zma so'z" metodini oladigan bo'lsak. Bu o'yinda bolalar ochiq havoga chiqib olishadi va ikki qator bo'lib turib olishadi. Qator boshida turgan o'quvchi ingliz tilida biror so'z aytadi va 1-o'quvchi aytgan so'zning oxirgi harfiga 2-o'quvchi biror so'z aytadi. Misol uchun, qator boshidagi o'quvchi "apple" so'zini aytgan bo'lsa, keyingi o'quvchi "egg" deb aytishi kerak. Bu turdagi o'yinlar bolalarning xotirasini mustahkamlaydi, fikrlashga o'rgatadi va ijodkorlik hissini oshirishga yordam beradi.

"The method of smile" metodi bunda har xil yuz mimikalarini ifoda etuvchi sifatlar bolalarga smayliklar ko'rsatish usuli orqali o'rgatiladi. Bunda o'quvchilar 3 guruhga bo'linishi, oq rangli qog'ozlardan foydalanib har xil yuz ifodalari xafa, xursand, baxtli, yig'loqi, aqli, o'ychan, serharakat, bilimdon, uyatchan, sho'x, chiroyli, kabi rasmlarni chizishadi va uni o'qituvchiga taqdim etishadi. O'qituvchi ularni aralashtirib har bir guruhga ko'rsatib chiqadi, o'quvchilar shu tariqa yuz mimikalarini ifodalovchi sifatlarni o'rganib oladilar.

"Bingo" metodi, bunda o'qituvchi turli xil ingliz tilidagi so'zlarni doskaga yozadi, hamda ikkita o'quvchini doskaga chiqarib xohlagan bitta yozgan so'zini aytadi. Doskaga chiqqan ikkita o'quvchinig qay biri tez topsa o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi. Shu

tarzda qolgan o'quvchilarni ham birma bir chiqarib o'yinni davom ettiradi. Ushbu metod, o'quvchilarning tezligini oshirishga, serharakat bo'lishga, va yaxshi fikrlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, darsda o'quvchilarning diqqatini tortish, darsning qiziqarli, foydali va eng asosiysi hozirgi zamon talablariga mos ravishda o'qitish uchun turli xil metodlar hamda metodik qo'llanmalar, prezintatsiyalar orqali dars o'tkazish o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga, fanga oid ma'lumotlarni sodda va tushunarli usulda o'rganishlari va ularni yaxshiroq eslab qolishlari uchun eng samarali usullar hisoblanadi. Xorijiy tillarni interfaol usullar yordamida o'rgatish o'quvchilarni bu tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Google.e-library.namdu.uz.
2. Google.https://fayllar.org.
3. Zubaydova Nilufar Nematillaeva , Learning English with phrases (2019).
4. Zubaydova Nilufar Nimatillaeva, The importance of teaching vocabulary (2019).
5. Google.O'z Me.Birinchi jild.Toshkent.2000-yil
6. <https://youtube.com/watch?V=3VK2QycneFk&5i=WPGjdyzP85Dx/m/m>.
7. <https://youtube.com/watch?V=1DpskpeOe44&si=ISQ00Ke7b>.